

DEYKSIS TASNIFIKA YONDASHUV VA DEYKSIS TURLAR

Bahriddinova Gavhar Oydinovna

Navoiy Davlat Universiteti magistri

Annotatsiya: Deyksis turlari masalasiga doir ilmiy manbalarda deyksisning turlicha yondashuvlar asosida tasniflanishi kuzatiladi. Deyksisning qayd etilgan barcha turlari uning qaysidir jihatini ochib berishga xizmat qiladi. Jumladan, emosional, ijtimoiy deyksislari nutqiy mulohaza ishtirokchilarining turli belgilariga ishorasi bilan deyksis ob'ektini kengaytiradi. Demak, deyksisning ishoraviylik vazifasi ko'p tarmoqli. Har bir tarmoqni o'rganish esa deyksis mohiyatining to'liq ochib berilishiga yordam beradi.

Kalit so'z: R.Lakoff, V.V.Jura, V.I.Shaxovskiy Ch.Fillmor kabi olimlarning deyksis turlari haqida fikrlari

Ma'lumki, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning nutqida qo'llanilayotgan deyksis nazariyasi tilshunoslikning asosiy masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Deyksis nazariyasi haqida bir qancha olimlar o'z ilmiy izlanishlarini olib borishgan. Deyksis tadqiqiga bag'ishlangan dastlabki ilmiy ishlarda uning 3 turga bo'linganligini, shaxs, zamon va makon deyksisiga bo'linganini ko'rishimiz mumkin. Keyingi yillarda deyksis turli tillar doirasida yanada keng o'rganilishi natijasida uning yangi turlari kelib chiqdi. Deyksis turlari ayrim ilmiy ishlarda nutqiy aktning imkoniyatlari va xususiyatlardan kelib chiqib belgilangan bo'lsa, ba'zi tadqiqotlarda deyktik birliklarning vazifaviy xususiyatlari, ishora ob'ektini ko'rsatish belgisiga ko'ra tasniflanadi.

Deyksisning an'anaviy tarzda ajratiluvchi shaxs, zamon va makon deyksisi kabi turlari deyktik birliklarning ishora ob'ektini ko'rsatish belgisi asosida belgilanadi. Shunga ko'ra deyksisning mazkur turlarini hosil qiluvchi markaziy birliklar ajratiladi. Misol uchun, shaxslarga ishora qiluvchi birliklar olmoshlar o'zbek tilida men, sen; rus tilida мы, вы makonga ishora qiluvchi deyktik birliklarga o'rin ravishlari o'zbek tilida narida, uzoqda; rus tilida здесь, тут, zamon deyksisini yuzaga chiqaruvchi birliklarga payt ravishlari o'zbek tilida hozir, bugun, ertalab; rus tilida сегодня, сейчас kabilar kiritiladi.⁶

Deyksis tadqiqiga bag'ishlangan keying tadqiqotlarda an'anaviy tarzda ajratiluvchi shaxs, zamon va makon deyksisi qatorida me'yoriy holat va baho deyksisi,⁷ emosional deyksis⁸ diskurs deyksis, sotsial deyksis⁹ denotativ¹⁰, kommunikativ deyksis¹¹, predmet deyksisi, miqdor deyksisi¹² kabideyksis turlari ham ko'rsatilib, har birining mohiyati, ifoda vositalari yoritiladi.

⁶ http://www.mirrrobot.com/work/work_37262.html ; Shermatov A. Ingliz ilmiy -texnik matnida deyksisnin ifodalanishi; Filol. Fan . nomz. Diss. Avtoref. - Toshkent, 2008.

⁷ Rahimov S. Rechevaya kommunikatsiya I problema deyksisa v raznosistemnix yazikax. - Toshkent ; Fan , 1989.-S 21-23

⁸ Jura V.V. Emotsionalniy deyksis v verbalnom povedeniye anliksiy yazikov lichnosti38-57

⁹ Fillmore Charles . Lectures on deixis.-Stanford ; CSLI Publication , 1997.

¹⁰ Misaylov T.I. 2005

¹¹ Fomichenko L.G. 82-85

¹² Rabdil T.B. Yazik I mir 358. //http://books.google.co.uz/books

Manbaalarda deysisning ko'rsatilgan turlari har xil tavsiflangan. Misol uchun, S. Rahimov tilshunos E.V. Klark ortidan me'yoriy holat va baho deysisi turini ajratadi. Olimning fikricha, insonning me'yoriy holati uning harakati, holatining o'zgarishiga nisbatan deytik markaz vazifasini bajaradi. Jumladan, ingliz tilida «come» va «go» fellarining metaforik ma'noda qo'llanilishi, asosiy ma'nolaridan tashqari me'yoriy holatga ishora qila olish xususiyatiga egaligi ularni deytik birlik ekanligini ko'rsatadi.¹³

Bizningcha, mazkur tasnif mantiqiy yondashuv mahsuli bo'lib, borliqdagi har qanday mavjudlikning me'yoriy va o'zgaruvchan holatini ifodalovchi lisoniy hodisani deysis deb baholab bo'lmaydi.

Shuningdek, so'zlovchining baho munosabati orqali yuzaga chiquvchi deysisning baho deysisi deb tasniflanishi ham munozarali. Bizningcha, so'zlovchining voqelikka subyektiv baho berish orqali anglashiluvchi salbiy va ijobiy munosabat til birliklarining sxemasida bevosita bilinib turadi. Bunda baho munosabati ifodalovchi birliklar orqali baho egasiga, ya'ni so'zlovchining o'ziga ishora ifodalanadi. Bu ishora yashirin tarzda namoyon bo'lganligi sababli mazkur holatni shaxs deysisining implisit ifodasi deb yondashish maqsadga muvofiq.

R.Lakoff deysisni zamon-makon, diskurs va emotsional turlarga ajratishni taklif qiladi. Dastlabki ikki tur tilshunoslikdagi an'anaviy tasnifga muvofiq keladi. Olim emotsional deysis so'zlovchining his – tuyg'ular ta'sirida deytik birliklarning amaldagi vazifalari rioya qilinmagan hollarda yuzaga chiqishini bayon qiladi.¹⁴

Deysisning emotsional deysis turi tilshunos olimlar V.V.Jura, V.I.Shaxovskiy tomonidan ham ko'rsatilgan. Ularning fikricha, emotsional deysisda «emotsional nutq faoliyatini amalga oshirish uchun asos vazifasini bajaruvchi so'zlovchining ruhiy holati»ga ishora anglatadi.¹⁵

Darhaqiqat, inson ob'yektiv borliqdagi voqeliklarni qabul qilar ekan, unda turlicha emotsional holatlarni kechiradi. U o'zining mazkur holatini to'g'ridan – to'g'ri ifodalamasligi mumkin, ammo uning voqelikka bo'lib o'tgan voqelikka bildirgan munosabati uning emotsional holatini ko'rsatib turadi.

Ch.Fillmor esa an'anaviy shaxs, makon, zamon deysislari qatorida ijtimoiy va diskurs deysislarni ajratgan. Uning nazarida diskursiv deysis matn qismlariga ishora qiluvchi leksik va grammatik elementlar bilan bog'liq. Shuningdek, u diskursiv deysisni bevosita matnga aloqador deb hisoblamaydi. Olimlarning fikricha, diskursiv deysisda tilning og'zaki va yozma shakllari uchun xos bo'lgan vositalari mavjud, ijtimoiy deysis esa real hayotning ba'zi ijtimoiy vaziyatlarini aks ettiradi.¹⁶

D.A.Akselrud vaziyat va matn deysisini ajratgan. U vaziyat deysisiga shaxs, zamon, makon deysislarini, matn deysisiga esa mustaqil jumlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlovchi, ya'ni qiyoslovchi yoki tenglashtiruvchi, ishora qiluvchi, aniqlik

¹³ Raximov S.

¹⁴ Lakoff Robin T. Remarks on this and then. // <https://www.semanticscholar.org/paper/Remarks-on-this-and-that-Lakoff>

¹⁵ Jura V.V. Shaxovskiy V.I.

¹⁶ Fillmore Charles. Lectures on deixis.-Stanford; CSLI Publication, 1997.

kirituvchi, umumlashtiruvchi semantik xususiyatga ega til birliklari orqali yuzaga chiqadigan deysisni kiritishni taklif qilgan.¹⁷

Deyksisning tasniflanishida aksariyat hollarda nutq ishtirokchilarining o'ri e'tiborga olingan. Jumladan, V.V.Burlakova egosentrik va egosentrik bo'lmagan deysis turi haqida ma'lumot bergan. U egosentrik bo'lmagan deysis adresat bilan bog'liq holda makon deysisida yuzaga chiqishini bayon qilgan va bunga misol sifatida sport ustasining «Bir qadam oldinga!», «O'ngga!» kabi buyruq tipidagi gaplarini keltirgan.¹⁸

K.Brugman ham deysisning turlarini ajratishda nutq ishtirokchilariga asoslanadi. U deysisning neytral deysis, so'zlovchi doirasini ko'rsatuvchi deysis, tinglovchi doirasini ko'rsatuvchi deysis, ob'yektning so'zlovchidan uzoqlik masofasini ko'rsatuvchi deysis kabi turlarini ajratadi.¹⁹

Darhaqiqat, ishora mo'ljalining nafaqat so'zlovchiga, boshqa nutq ishtirokchilariga nisbatan ham belgilanishi asosli. Zero, nutqda deysitik birliklarning ishora mo'ljali nutqiy vaziyatga ko'ra o'zgarib turadi.

Ye.L.Yerzinkyan esa ayni holatga sub'yektivlik va ob'yektivlik nuqtayi nazaridan yondashib deysisning sub'yektiv va ob'yektiv deysis turlarini farqlagan. Uning fikricha, sub'yektiv deysis mo'ljalning so'zlovchiga nisbatan, ya'ni ayni kontekstda so'zlovchini markaziy nuqta deb belgilash mumkin bo'lgan o'rinlarda, ob'yektiv deysis esa mo'ljalning boshqa (so'zlovchiga teng bo'lmagan) nuqtasiga nisbatan belgilanishida amal qiladi.²⁰

P.Stokvel deysisning makon, zamon deysisi turlari qatorida perseptiv, relyasion deysisni ham ajratgan. U boshqa tilshunoslardan farqli tarzda perseptiv deysisni diskurs ishtirokchilariga ishora qilish tarzida; relyasion deysisni esa nutq egalarining jamiyatlardagi ijtimoiy mavqei, modallik, baho munosabatiga ishorasi sifatida baholagan.²¹

Nemis olimi G.Sitta esa so'zlovchining mavqeini makon deysisi tavsifida hisobga oladi. Shunga ko'ra makon deysisining autodeysis va geterodeysis turlarini ajratish mumkinligini, autodeysisda ishora so'zlovchi mavqeiga bog'liq bo'lishi, geterodeysis esa so'zlovchi mavqei kiritilmagan o'rinlarga taalluqli ekanligini qayd etadi.²²

Ayrim tadqiqotlarda deysis turlarini belgilashda ishora manbai e'tiborga olinadi. Jumladan, K.Elix agar deysis matndan tashqaridagi mavjudlikka yo'naltirilgan bo'lsa, xususiy yoki tashqi deysis; matnning ichki tuzilishiga yo'naltirilgan bo'lsa va diskursning mazmuniy bog'liqligini ta'minlayotgan bo'lsa, anafora yoki mazmuniy, ichki deysisni ajratish lozimligini qayd etadi.²³

T.N.Astafurova xatlar matnini tahlil etar ekan, bunday matnda deysisning kommunikativ yoki adresativ deysis turini ajratgan.²⁴ Uning fikricha, xatlar muayyan

¹⁷ Akselrud, D. A. Kontekstualnyye svyazi odnosostavnykh bezglagolnykh predlozheniy v angliyskom yazyke (na materiale proizvedeniy V. Shekspira). Diss. ... kand. filol. nauk. – L., 1975. – 192 s.

¹⁸ Burlakova V.V. Deyksis // Spornyye voprosy angliyskoy grammatiki. B. Ye. Zernov, O. V. Yemelyanova, Ye. G. Xomyakova i dr. – L.: LGU im. A. A. Jdanova, 1988. – S. 84.

¹⁹ Kibrik A.A. Deyksis. // http://encyclopaedia.big.ru/enc/liberal_arts/DEKSIS.html.

²⁰ Yerzinkyan Ye.L. Semantika i pragmatika deyticheskogo slova. Avtoref. diss. ... dok. filol. nauk. – Yerevan, 2012. – S.23.

²¹ Stockwell P. Cognitive poetics: An Introduction. – London: Routledge, 2002. – 193 p.

²² Sitta G. Deixis and Pointing Gestures. – Berlin, 1993. № 96. – P. 319-335.

²³ Elix K. Anafora i deysis // Rech, Mesto i Deystviye. – Chichester, Nyu-York, Singapur, 1982. – S.328.

²⁴ Astafurova T.N. Kommunikativnyy deysis // Materialy XI nauchn. konf. prof.- prep. sostava. – Volgograd, 1994. – S.342-345.

adresatga qaratilgan bo'ladi, shunga ko'ra xatlar matniga xos deysisni adresativ deysis termini bilan atash maqsadga muvofiq.

Bizningcha, nafaqat xatlar matni, balki har qanday nutqiy tuzilma «adresatlik» va «kommunikativlik» xususiyatiga ega. Bu o'rinda nutqning kimga qaratilganligi va unda kimga ishora qilinishi masalasini farqlash lozim.

A.K.Ustin badiiy matnda madaniy genli deysis (kulturogenный) turining amal qilishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, «matn ichki tuzilishi tabiat qonuniyati ostida emas, inson intellekti, ya'ni madaniyati orqali o'zlashtiriladi». Olim bu jihatdan deysis asosiga «Shaxs», «Makon», «Zamon» belgilarini emas, madaniy deysis uchun asos bo'ladigan «Hayot», «Muhabbat», «O'lim» belgilarini taklif etadi va mazkur deysitik belgilarni har qanday badiiy matndan topish mumkinligini qayd etadi.²⁵

Bizningcha, A.K.Ustin taklif etgan belgilar deysis tadqiqiga mantiqiy-falsafiy yondashuv mahsulidir. Zero, shaxs, makon va zamon tushunchalarisiz nafaqat deysisni, balki borliqning mavjudligi qonuniyatlarini ham tasavvur etib bo'lmaydi.

Boshqa tilshunoslardan farqli tarzda Dj.Layonz «Lingvisticheskaya semantika» asarida lokutiv va kognitiv deysis turlarini farqlagan.²⁶ Mazkur tasnifda nutqiy aktning lokutiv va kognitiv akt turlariga tayanilgan. Dj.Layonzning fikricha, har bir lokutiv akt ma'lum bir zamon va makonda yuzaga chiqadi, ya'ni hozir, shu yerda tarzidagi o'zining boshlang'ich nuqtalariga ega bo'ladi. Shu yerda birligida so'zlovchining nutqi kechayotgan makon, hozir birligida lokutiv aktning yuzaga chiqish vaqti ko'zda tutiladi. Kognitiv deysis kognitiv akt, ya'ni tasavvur va mental akt tushunchasiga aloqador.

Ko'rinadiki, lokutiv deysis an'anaviy shaxs, makon, zamon deysisining umumiy, alohidalikka ajratilmagan turi. Kognitiv deysis K.Byuler tomonidan farqlangan tasavvur deysisiga muvofiq keladi. Mazkur tasnifga qo'shimcha qilgan holda tilshunos J.V.Nikonova illokutiv deysisni ajratgan. Uning fikricha, illokutiv deysis illokutiv aktga ishora qilishi bilan xarakterlanadi hamda so'roq, buyruq, istak gaplar illokutiv deysisga ishora qiluvchi grammatik birliklar sifatida namoyon bo'ladi.²⁷

J.A.Volkova tomonidan ingliz tilida deysisning sub'yektiv- inklyuziv va mavhum deysis kabi turlari ajratilgan. U deysisning sub'yektivlik hamda vaziyatlilik belgilarini sub'yektiv-inklyuziv deysis sifatida izohlagan, bayonda bo'sh, muallaq o'rinlarga ishora qilinishini mavhum deysis sifatida ko'rsatgan.²⁸

Tilshunoslikda deysisning olmoshlarning qo'llanish xususiyatlariga ko'ra tasnifi ham kuzatiladi. Jumladan, A.S.Kalashova nutqda deysitik olmoshlarning qo'llanilishiga ko'ra paradigmatic, sintagmatic, implisit deysis hamda ortiqchalik deysisi (izбыточный deysis)ni ajratgan. U paradigmatic deysisda deysitik olmoshlar orqali nutq ishtirokchilari yoki nutqiy vaziyat elementlariga ishora qilinishini qayd etgan.

²⁵ Ustin A.K. Deykticheskaya konsepsiya teksta, myshleniya i kultura. Avtoref. diss. dok. kult. nauk. – Sank Peterburg, 1998. – 35 s

²⁶ Layonz Dj. Lingvisticheskaya semantika. Vvedeniye. – M.: Yazyki slavyanskoy kultury, 2003. – 400 s.

²⁷ Nikonova J.V. Kognitivnyye osnovy illokutivnogo deysisa (na materiale sovremennogo nemeskogo yazyka). Avtoref. diss. dok. filol. nauk. – Tambov, 2016. – 41 s.; Midova Ye.O., Nikonova J.V. Eksplisitnyye i implisitnyye sredstva illokutivnogo deysisa // Vestnik Nijgorodskogo universiteta im. N.I. Lobachevskogo. – Nijniy Novgorod, 2014. № 2-2. – S. 387 - 390.

²⁸ Volkova J.A. Semantiko-sintaksicheskoye sredstvo vyrazheniya sub'yektivno- inklyuzivnogo deysisa v sovremennom angliyskom yazyke // Teoriya markirovannosti na raznykh urovnyax yazyka. – M., 1985. – S. 25-33.; Volkova J. A. Sub'yektivno- inklyuzivnyy deysis i klassifikatsiya glagolov v sovremennom angliyskom yazyke // Teoriya lingvisticheskix klassifikatsiy. – M., 1987. – S. 16-23.

Sintagmatik deysis esa matnning ichki tuzilishiga qaratilgan bo'lib, unda matnning avvalgi qismida aytib o'tilgan narsaga anaforik olmoshlar orqali ishora qilinadi. Implisit deysis so'zlovchi shaxsi ochiq ifodalanmagan, ya'ni fikr sub'yekti vaziyatidagi shaxs olmoshlari tushirib qoldirilgan hamda ularni aniqlash imkoni fe'lining shaxs ko'rsatkichlari orqali amalga oshiriluvchi deysis hisoblanadi. Ortiqchalik deysisi so'zlovchi me'yordan ortiq deytik birliklardan foydalanganda, ularning ishora ob'yektini aniqlashtirish imkoni murakkablashganda namoyon bo'ladi. Mazkur holda nutq mazmuni xiralashadi, biroq bu so'zlovchining muayyan kommunikativ maqsadlari, ya'ni tinglovchidan ba'zi ma'lumotlarni yashirish, noto'g'ri ma'lumot berish kabilarni ifodalashga xizmat qiladi va ko'p hollarda aloqaning buzilishiga olib keladi.²⁹

O'zbek tilshunosligida deysisning tasniflanishi dastlab S.Rahimovning qiyosiy-tipologik aspektidagi tadqiqot ishida kuzatiladi. Olim o'zbek tilida shaxs, zamon va makon deysislari qatorida me'yoriy holat va baho deysisi mavjudligini ham ta'kidlaydi.³⁰

Sh.Safarov o'zbek tilida deysisning an'anaviy tarzda ajratilgan shaxs, zamon, makon deysisi turlari qatoriga emosional, diskurs, sosial deysisni kiritgan.³¹

G.Boltaqulova ingliz-o'zbek tillarida zamon deytik birliklarining xususiyatlarini o'rganish asosida bu tillarda temporal deysisning ifodalanishini ko'rsatgan.³²

Deysis tasnifiga doir ilmiy manbalar tahlili asosida aytish mumkinki, deysis turlarini belgilashda uni hosil qiluvchi deytik birliklarni belgilash muhim o'rin tutadi. Deytik birliklar tilning ishoraviy birliklari ekan, ularning, avvalo, nimaga ishora qilishini aniqlash muhim. Bu jihatdan, ya'ni deytik birliklarning ishora ob'yektiga ko'ra o'zbek tilida deysisning quyidagi turlarini farqlash mumkin:

- 1) nutqiy akt ishtirokchilari: so'zlovchi, tinglovchi va o'zgaga ishorani anglatuvchi deysis – shaxs deysisi;
- 2) borliqdagi narsa-predmetga ishorani anglatuvchi deysis – predmet deysisi;
- 3) narsa-predmet, harakat belgisiga ishorani anglatuvchi deysis – belgi deysisi;
- 4) narsa-predmet, harakat miqdoriga ishorani anglatuvchi deysis – miqdor deysisi;
- 5) voqelikning yuzaga chiqish o'rni, muloqot ishtirokchilari turgan makonga ishorani anglatuvchi deysis – makon deysisi;
- 6) voqelikning yuzaga chiqish vaqti, muloqot kechayotgan paytga ishorani anglatuvchi deysis – zamon deysisi;
- 7) nutqiy akt ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeiga ishorani anglatuvchi deysis – ijtimoiy deysis;
- 8) nutqiy muloqot ishtirokchilarining emosional holatiga ishorani anglatuvchi deysis – emosional deysis;

²⁹ Kalashova A.S. Lingvopragmaticheskiye osobennosti referensii cherez deysis v politicheskoy diskurse (na primere publichnykh vystupleniy F. Kastro). Filologicheskiye nauki. № 7. // http://www.rusnauka.com/8_NMIW_2012/Philologia/7_104089.doc.htm

³⁰ Raximov S. Rechevaya kommunikatsiya i problema deysisa v raznosistemnykh yazykax. – Toshkent: Fan, 1989. – S. 90.

³¹ Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklope-diyasi, 2008. – B. 178.

³² Boltaqulova G.F. Ingliz va o'zbek tillarida temporallik va uning deytik xususiyatlarining qiyosiy-funksional tadqiqi: Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) diss. ... avtoref. – Toshkent, 2018. – 54 b.

9) ob'yektiv borliqdagi vaziyatga, voqelikka ishorani anglatuvchi deysis – propositiv deysis;

10) matnning muayyan tarkibiy qismiga ishorani anglatuvchi deysis – diskurs deysisi.

Deyksisning qayd etilgan turlari nutqda o'zbek tilining fonetik, leksik, morfologik va sintaktik sath birliklari orqali hosil bo'ladi. Albatta, o'zbek tilidagi deysisning bunday turlari va ishora birliklarining har biri alohida tadqiq ob'yekti bo'la oladi.³³

Xullas, deysis turlari masalasiga doir ilmiy manbalarda deysisning turlicha yondashuvlar asosida tasniflanishi kuzatiladi. Deyksisning qayd etilgan barcha turlari uning qaysidir jihatini ochib berishga xizmat qiladi. Jumladan, emosional, ijtimoiy deysislari nutqiy muloqot ishtirokchilarining turli belgilariga ishorasi bilan deysis ob'yektini kengaytiradi. Demak, deysisning ishoraviylik vazifasi ko'p tarmoqli. Har bir tarmoqni o'rganish esa deysis mohiyatining to'liq ochib berilishiga yordam beradi.

³³ Davlatova R.H.